**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

"TASDIQLAYMAN"
O'quv ishlari bo'yicha
prorektor __________ R.G'. Jumayev
"31" 01 ________ 2025 y.

| "KELISHILGAN" | "KELISHILGAN" |
| --- | --- |
| San'atshunoslik va pedagogika fakulteti<br>dekani __________ S.S. Azimov<br>"31" 01 __________ 2025 yil | O'quv uslubiy departament boshlig'i<br>__________ S.S.Davlatov<br>"31" 01 __________ 2025 yil |

**60210500-Rangtasvir: (dastgohli), 60210800-Amaliy san'at (Badiiy kulolchilik) ta'lim yo'nalishlari bitiruvchilari uchun ixtisoslik fanlaridan Yakuniy davlat attestatsiyasi imtihon**

# DASTURI

**1.00. Majburiy fanlari:**

**1.12. Zamonaviy milliy dastgohli chizmatasvir**
**1.15. Zamonaviy milliy dastgohli rangtasvir**
**1.17. Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari**
**1.18. Badiiy kulolchilikda loyihalash**
**1.20. Ashyoda ishlash**
**1.21. Ijodiy loyihalash**
**1.23. Amaliy bezak san'ati**

**Buxoro – 2025 yil**

## ANNOTATSIYA

Mazkur Dasturda Davlat ta'lim standartlarining ta'lim soxalari bo'yicha ishlab chiqilishi o'quv fanlarini variativ tanlash asosida o'quv-metodik majmualar (dastur, o'quv rejasi, darsliklar)ni yaratish uchun keng imkoniyatlar ochib berishi, shuningdek, o'quv fanlararo bog'lanish va bilimlarini muvofiqlashtirish tamoyili asosida o'quv fanlarining ichki bog'liqligi va fanlararo aloqasini ta'minlanishi ko'rsatilgan.

Hozirda o'qituvchilarning yuqori kasbiy tayyorgarlikka, pedagogik mahoratga, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga, mafkura borasida chuqur bilimga ega bo'lishi, ta'lim-tarbiya ishlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol usullardan samarali foydalanishi davr talabi hisoblanadi.

Mazkur Dasturda ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish jiddiy vazifa bo'lib turishi, buning uchun har bir o'qituvchi o'z fanini o'qitishning eng samarali zamonaviy pedagogik texnologiyalarni puxta bilishi va bu sohadagi yangiliklarni uzluksiz o'rganib borish orqali o'z kasbiy mahoratini muntazam oshirib borishi haqida ta'kidlangan.

Ushbu Dastur 60210500-Rangtasvir: (dastgohli), 60210800-Amaliy san'at (Badiiy kulolchilik ta'lim yo'nalishishlari malaka talablari asosida ishlab chiqilgan.

| | | |
|---|---|---|
| **Tuzuvchilar:** | | **N.M.Avliyoqulova** – Tasviriy va amaliy san'at kafedrasi dotsenti |
| | | **Sh.Sh. Bakayev** - Tasviriy va amaliy san'at kafedrasi dotsenti |
| | | **O.N. Shomurodov** - Tasviriy va amaliy san'at kafedrasi dotsenti |

| | | |
|---|---|---|
| **Taqrizchilar:** | | **I.I. Toshev** - BuxMTI, dotsent; |
| | | **A.Sh. Aminov** -Buxoro davlat pedagogika instituti, Musiqa va tasviriy san'at kafedrasi dotsenti |

**Imtihon dasturi Buxoro davlat universiteti Kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan.**

**2025 yil «31» yanvardagi 6- sonli bayonnoma.**

## 1. Kirish

60210500-Rangtasvir: (dastgohli), 60210800-Amaliy san'at (Badiiy kulolchilik ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi oliy ta'limning o'quv rejalari va fan dasturlari asosida amalga oshiriladi. Fan dasturlarining nazariy va amaliy mashg'ulotlarini to'liq o'zlashtirgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan shaxsga «bakalavr» malaka (daraja)si hamda oliy ma'lumot to'g'risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjat(lar) beriladi. Bakalavr yakuniy davlat attestatsiyasi doirasida o'quv rejadagi ixtisoslik fanlaridan yozma va amaliy ish topshirishi nazarda tutilgan.

### 1.1. O'quv faninig maqsad va vazifasi

Fanni o'qitishdan maqsad – rassom tasviriy san'at turlarining qaysi birida ijod qilishidan qat'iy nazar chizmatasvirga va rangtasvirga asoslanadi. U o'zining kuzatishlari, asar oldida kompozisiyalari ustidagi izlanishlarini avval qalamda, dastlabki chizgilar bilan ifodalaydi. Yaratilgan va yaratilayotgan badiiy asar ta'sirchanligini anglash, xis etish va uning badiiy g'oyasini oshirish, rivojlantirish yo'nalishlarini belgilab olish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarini shakllantirish ko'nikmasini xosil qiladi. Shunda fanning vazifasi - fundamental, umumkasbiy va maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash ko'nikmalarini xosil qilish. Bu borada ko'nikma va malakalarini egallashga q'aratilgan.

## I. UMUMIY QOIDALAR

1. Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestastiyasi bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari o'quv jarayoni jadvaliga muvofiq o'tkaziladi.

2. Yakuniy davlat attestastiyasi oliy ta'lim muassasasidagi har bir ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha tashkil etiladigan yakuniy davlat attestastiya komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

3. Yakuniy davlat attestastiyasi komissiyalarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

bitiruvchining bilim, malaka va ko'nikma darajasining davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq kelishini kompleks baholash;

yakuniy davlat attestastiyasi natijalari bo'yicha bitiruvchilarga bakalavr (magistr) akademik darajasini berish masalasini hal qilish;

komissiya faoliyati natijalarini tahlil qilish va ular asosida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

4. Yakuniy davlat attestastiyasi komissiyalari o'z faoliyatlarini mazkur Nizom hamda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasi va ta'lim mazmuniga qo'yilgan Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga yo'naltirilgan boshqa hujjatlarga tayangan holda olib boradilar.

## II. YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI SINOVLARI

5. Yakuniy davlat attestastiyasi ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) o'quv rejalariga muvofiq quyidagi turlardagi attestastiya sinovlaridan iborat:

xorijiy til bo'yicha yakuniy davlat attestastiya sinovi (oliy ta'lim muassasasi Kengashi qaroriga asosan o'tkazilishi mumkin);

ta'lim yo'nalishi bo'yicha fanlararo (majburiy fanlar) yakuniy davlat attestastiya sinovi;

diplom loyihasi himoyasi;

bitiruv malakaviy ish (magistrlik dissertastiyasi) himoyasi.

6. Xorijiy til bo'yicha yakuniy davlat attestastiyasi sinovi mazkur fanning davlat ta'lim standartida belgilangan zaruriy mazmunidan kelib chiqqan holda o'quv dasturida nazarda tutilgan materiallarni talaba tomonidan o'zlashtirilganlik darajasini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

7. Ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha fanlararo yakuniy davlat attestastiya sinovi fanlar mazmuniga qo'yiladigan talablar bilan bir qatorda, talaba tayyorgarligining mazkur ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik) bo'yicha malaka talablarida bitiruvchiga nisbatan nazarda tutilgan umumiy talablarga ham javob bera olish darajasini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

8. Yakuniy davlat attestastiyasini majburiy fanlardan (fanlararo) yakuniy davlat attestastiya sinovi yoki diplom loyihasi himoyasi yoxud bitiruv malakaviy ishi (magistrlik dissertastiyasi) himoyasi shaklida o'tkazilishi bitiruvchilarning iqtidori, xohishi va ta'lim xususiyatidan kelib chiqqan holda oliy ta'lim muassasasi Kengashi qarori bilan belgilanadi.

Yakuniy davlat attestastiyasiga oliy ta'lim muassasasi Kengashi qaroriga asosan xorijiy til bo'yicha yakuniy davlat attestastiya sinovi qo'shimcha sifatida kiritilishi mumkin.

Oliy ta'lim muassasasi Kengashining qarori bilan bitiruvchi uchun belgilangan yakuniy davlat attestastiyasining shakli bir o'quv yili davomida o'zgartirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Yakuniy davlat attestastiyasi sinovlari o'quv jarayoni jadvalida ko'rsatilgan muddatlarda fakultet dekani yoki o'quv-uslubiy bo'lim (boshqarma) tomonidan tayyorlangan, oliy ta'lim muassasasi o'quv ishlari bo'yicha prorektori tomonidan tasdiqlangan Yakuniy davlat attestastiyasi sinovlari jadvali asosida o'tkaziladi.

9. Oliy ta'lim muassasalari tomonidan tajribali professor-o'qituvchilarni jalb etgan holda yakuniy davlat attestastiyasi sinovlarining dasturlari va baholash

mezonlari ishlab chiqiladi hamda oliy ta'lim muassasasi Kengashi tomonidan tasdiqlanadi va yakuniy davlat attestatsiyasi boshlanishidan kamida uch oy oldin talabalar e'tiboriga yetkaziladi.

## III. YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYA KOMISSIYALARI TARKIBI

10. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari raisligiga nomzodlar kafedra mudiri tomonidan tasdiqlash uchun oliy ta'lim muassasasi rektoriga (filial direktoriga) taqdim etiladi.

11. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi raislari oliy ta'lim muassasasining idoraviy mansubligidan qat'i nazar, ushbu ta'lim muassasasida faoliyat yuritmayotgan olimlar, ishlab chiqarishning tajribali mutaxassislaridan tegishli oliy ta'lim muassasasi rektorining (filial direktorining) buyrug'i bilan bir yil (kalendar yil) muddatga tasdiqlanadi.

Bir kishi ketma-ket bir oliy ta'lim muassasasida tegishli yo'nalish (mutaxassislik) bo'yicha ikki martadan ortiq yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasining raisi bo'lishi mumkin emas.

12. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi raislari rahbarligida oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) bilan birgalikda xorijiy til bo'yicha yakuniy davlat attestatsiya sinovi (oliy ta'lim muassasasi Kengashi qaroriga asosan) va (yoki) ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik) bo'yicha fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi va diplom loyihasi yoki bitiruv malakaviy ishi (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasi yoki majburiy fanlardan yakuniy davlat attestatsiya sinovini o'tkazish bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari tarkibi shakllantiriladi.

13. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari tarkibi mutaxassis tayyorlovchi oliy ta'lim muassasasining ilmiy-pedagogik kadrlari (attestatsiya komissiyasi umumiy tarkibining 50 foizigacha), shuningdek mazkur soha kadrlarining iste'molchilari bo'lgan korxona, tashkilot va muassasalarning yuqori malakali mutaxassislari, turdosh oliy ta'lim muassasalarining etakchi professor-o'qituvchi va ilmiy xodimlari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimidagi tegishli soha olimlaridan iborat bo'ladi.

14. Yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari tarkibi kamida 5 nafar professor-o'qituvchi va mutaxassislardan shakllantiriladi. Yakuniy davlat attestatsiyasida vasiylik kengashi va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vakillari, bitiruvchilarning ota-onalari yoki ularning qonuniy vakillari hamda kadrlar buyurtmachilari jamoatchilik asosida kuzatuvchi sifatida qatnashishi mumkin.

Yakuniy davlat attestatsiya sinovlari jarayoni onlayn rejimda ovozli videotranslyastiya qilinadi hamda ushbu video tasvirlar 1 yil davomida mutaxassislik kafedrasida saqlanadi.

15. Yakuniy davlat attestatsiya sinovlari bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalarining tarkibi oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) tomonidan bitiruv semestri boshlanishidan bir oy oldin tasdiqlanadi.

Zaruriyat bo'lganda attestatsiya sinovlarining biri bo'yicha bitta rais rahbarligida bir nechta yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari tuzilishi mumkin.

Yakuniy davlat attestatsiyasi jarayonida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish Davlat inspekstiyasi vakillari ishtirok etishlari mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarining davlat attestatsiyasidan o'tmagan yo'nalish va mutaxassislik bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi ushbu oliy ta'lim muassasasining yuqori turuvchi vazirlik (idora) tomonidan tashkil etiladigan davlat attestatsiya komissiyasi tomonidan o'tkaziladi.

## IV. YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASINI O'TKAZISH TARTIBI

16. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari boshlanishidan oldin yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi raislari bilan oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) shaxsan yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalarining tayyorgarlik darajasi, komissiya raislari va a'zolarining vazifalari, bitiruvchilarga qo'yilayotgan talablar, tartib-intizom to'g'risida yig'ilish o'tkazadi.

17. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari yozma, test yoki og'zaki usulda tashkil etiladi va ushbu tartib oliy ta'lim muassasasi Kengashi qarori asosida ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) tomonidan belgilanadi hamda yakuniy davlat attestatsiyasi boshlanishidan uch oy oldin talabalar e'tiboriga yetkaziladi. Talabalar sinov o'tkaziladigan fanlar dasturlari bilan ta'minlanadilar, ularga tayyorgarlik ko'rish va maslahatlar berish uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

18. Yakuniy davlat attestatsiyasiga tegishli o'quv reja va fan dasturlarini to'liq tugatgan va o'quv rejasida nazarda tutilgan barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan talabalar qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari tegishli ta'lim dasturlarini to'liq o'zlashtirgandan keyin yakuniy davlat attestatsiyasidan o'tishlari majburiydir.

19. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari va diplom loyihasi yoki bitiruv malakaviy ish (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasi yoxud majburiy fanlardan yakuniy davlat attestatsiya sinovi yakuniy davlat attestatsiya komissiyalarining

ochiq majlislarida, a'zolarning kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan holda, rais ishtirok etmagan taqdirda rais o'rinbosari raisligida o'tkaziladi.

[illegible] yoki [illegible] malakaviy ish (magistrlik [illegible] yakuniy davlat attestatsiya [illegible] bazasida tashkil etilgan kafedra filiallarida sohaning etakchi mutaxassislarini jalb etgan holda o'tkazilishi mumkin.

Yakuniy davlat attestatsiyasiga kiritilgan barcha turdagi attestatsiya sinovlari bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimiga muvofiq aniqlanadi hamda yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasining majlis bayoni rasmiylashtirilgandan so'ng shu kunning o'zida e'lon qilinadi.

Yakuniy davlat attestatsiyasiga kiritilgan barcha turdagi attestatsiya sinovlarida mualliflikni o'zlashtirishga (plagiatga) yo'l qo'yilmaydi. Bunday holat aniqlanganda davlat attestatsiya komissiyasi tomonidan bitiruvchiga tegishli attestatsiya sinovidan qoniqarsiz baho qo'yiladi yoki qo'yilgan ijobiy baho bekor qilinadi.

20. Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari natijalari asosida ularga ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha bakalavr (magistr) darajasi berish haqida qaror qabul qiladi.

Yakuniy davlat attestatsiya komissiyalarining qarorlari ochiq ovoz berish yo'li bilan, majlisda ishtirok etuvchilarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan holda, raisning ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

21. Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi yakuniy davlat attestatsiyasi tarkibiga kiritilgan yakuniy davlat attestatsiya sinovidan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng unga muvofiq darajadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom va uning ilovasi beriladi.

22. Fanlar dasturlarini o'zlashtirishda katta yutuqlarga erishgan va o'quv rejasidagi barcha fanlarning kamida 3/4 qismi bo'yicha 90 ball va undan yuqori (5 baholik tizimda 5 baho (a'lo) o'zlashtirish ko'rsatkichlariga erishgan, (boshqa fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 71 balldan (5 baholik tizimda o'zlashtirish ko'rsatkichi 4 bahodan (yaxshi) kam bo'lmagan), shuningdek, yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari bo'yicha kamida 90 ball (5 baholik tizimda 5 baho (a'lo) o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ega bo'lgan bakalavriat bitiruvchisiga «imtiyozli» diplom beriladi.

23. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovidan o'ta olmagan shaxs o'qish muddati tugagandan so'ng, arizasiga muvofiq yakuniy davlat attestatsiyasi sinovini keyingi 3 yil davomida qayta topshirish huquqiga ega.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovidan o'ta olmagan shaxs keyingi o'quv yili boshlanganidan keyin yakuniy davlat attestatsiya sinovini qayta topshirishga ruxsat berishni so'rab oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) nomiga ariza bilan murojaat qilishi mumkin. Bunda, shaxsga yakuniy davlat attestatsiya sinovini keyingi har bir o'quv yilida (3 yil davomida) 2 martadan ortiq qayta topshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Yakuniy davlat attestatsiya sinovini qayta topshirishga ruxsat berish oliy ta'lim muassasasi rektorining (filial direktorining) buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

24. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovidan keyingi 3 yil davomida qayta o'ta olmagan talabaga akademik ma'lumotnoma beriladi va u o'rnatilgan tartibda, to'lov-kontrakt asosida tegishli bitiruv kursiga o'qish uchun qayta tiklanishi mumkin.

26. Uzrli sabab bilan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlariga kelmagan talabalar rektorning buyrug'i bilan yakuniy davlat attestatsiya komissiyasining ishi yakunlanishiga qadar boshqa muddatlarda o'tkaziladigan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlariga kiritilishi mumkin.

27. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarida olgan bahosiga e'tiroz bildirgan bitiruvchilarning arizalarini ko'rib chiqish uchun oliy ta'lim muassasasi rektorining (filial direktorining) buyrug'i bilan apellyatsiya komissiyasi tuziladi.

Apellyatsiya komissiyasi oliy ta'lim muassasasining ilmiy-pedagogik kadrlari (apellyatsiya komissiyasi umumiy tarkibining 40 foizigacha), shuningdek tegishli sohaning malakali mutaxassislari, turdosh oliy ta'lim muassasalarining tajribali professor-o'qituvchi va ilmiy xodimlari orasidan kamida 5 kishidan iborat tarkibda shakllantiriladi.

Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga joriy yilda yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi ishida ishtirok etgan shaxslarning kiritilishi ta'qiqlanadi.

28. Yakuniy davlat attestatsiyasi jarayonida qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan bitiruvchilar yakuniy davlat attestatsiyasi baholari e'lon qilingan kundan e'tiboran uch kun muddat ichida apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilish huquqiga egadirlar.

29. Apellyatsiya komissiyasi o'z xulosasini bitiruvchiga bir kun muddat ichida ma'lum qilishi lozim.

30. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasining ishi bo'yicha yillik hisobot oliy ta'lim muassasasi Ilmiy kengashida ko'rib chiqiladi. Mazkur Ilmiy kengashga yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari raislari taklif qilinadi.

## V. YAKUNIY QOIDALAR

31. Mazkur Nizomda belgilangan qoidalar bo'yicha nizolar qonun hujjatlariga muvofiq hal qilinadi.

32. Ushbu Nizom O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi, "O'zbekiston temir yo'llari" DAK, Davlat soliq qo'mitasi, Badiiy akademiya, Navoiy kon-metallurgiya kombinati, Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash

vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Madaniyat vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi bilan kelishilgan.

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami". 2009 yil, 23-son, 267-modda.

## 2.BAHOLASH MEZONI

Zamonaviy milliy dastgohli chizmatasvir, Zamonaviy milliy dastgohli rangtasvir, Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari, Badiiy kulolchilikda loyihalash, Ashyoda ishlash, Ijodiy loyihalash va Amaliy bezak san'ati ixtisoslik fanlaridan bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi himoya usulda o'tkaziladi. Har bir talaba amaliy ishini va ko'lyozmasini yakuniy davlat attestatsiyasiga ogzaki topshiradi. Xar bir talaba o'zi yaratgan san'at asarini tayyorlash texnika va texnologiyasi, asar kompozitsiyasi va asarni yaratish bosqichlarini tshuntiradi. San'at asari va ko'lyozmasi baholaganda, jami 100 ball to'plash mumkin.

| T.r. | Baho | Bakalavr talabasining bilim darajasi |
|---|---|---|
| 1 | 5 (besh) 23-25-(ball) har bir savol uchun | Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, ijodiy ishi a'lo bajarilgan, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — **5 (a'lo) baho** |
| 2 | 4 (to'rt) 18-22-ball har bir savol uchun | Talaba mustaqil fikrlaydi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, ijodiy ishi yaxshi bajarilgan, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi, hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — **4 (yaxshi) baho;** |
| 3 | 3 (uch) 15-17-ball har bir savol uchun | Talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, ijodiy ishi ko'nikarli bajarilgan, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — **3 (qoniqarli) baho** |
| 4 | 2 (ikki) 0-14-ball har bir savol uchun | Talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi, ijodiy ishi qoniqarsiz bajarilgan, hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi. |

## BAHOLASH TARTIBI

Yakuniy Davlat attestatsiya sinovida bitiruvchi talabalar uchun majburiy fanlardan jami 100 ballikda jamlanib hisoblanadi. Bitiruvchi talabalar umumiy to'plagan ballari Nizomning 1-jadvaliga muvofiq quyidagicha aniqlanadi:

**100 balldan-90 ballgacha-5 (a'lo);**

**89 balldan-70 ballgacha-4 (yaxshi);**

**69 balldan-60 ballgacha-3 (qoniqarli);**

**59 all va undan kam-2 (qoniqarsiz).**

## 3.ASOSIY NAZARIY QISM.

### Kirish

I. Fanning mazmuni. Fanni o'qitishdan maqsad – Rassom tasviriy san'at turlarining qaysi birida ijod qilishidan qat'iy nazar chizmatasvirga va rangtasvirga asoslanadi. U o'zining kuzatishlari, asar oldida kompozisiyalari ustidagi izlanishlarini avval qalamda, dastlabki chizgilar bilan ifodalaydi. yaratilgan va yaratilayotgan badiiy asar ta'sirchanligini anglash, xis etish va uning badiiy g'oyasini oshirish, rivojlantirish yo'nalishlarini belgilab olish bo'yicha nazariy bilimlarini shakllantirish ko'nikmasini xosil qilish. Fanning vazifasi - fundamental, umumkasbiy va maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash ko'nikmalarini xosil qilish. Bu borada ko'nikma va malakalarini egallashga q'aratilgan.

II. Asosiy qism (amaliy mashg'ulotlari)

Rangtasvir fani barcha tasviriy san'at mutaxassisliklari uchun zaruriyati bor fan bo'lib, u badiy tasvirlash madaniyatiga ega bo'lgan, realizm an'analariga sodiq rassom – shaxsni shakillantirish maqsadlarini ko'zlaydi. Bo'lajak amaliy san'at ustalarining badiiy qarashlarini va kuzatuvlarni rivojlantiradi. Chizmatasvir va rangtasvir faniga katta ahamiyat berishimiz lozim.

Yakuniy davlat attestatsiyasi multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada o'tkazilishi zarur. Himoya faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

## FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

### RAHBARIY ADABIYOTLAR:


1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. "O'zbekiston". 2021 yil.
2. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T. 2008 yil.
3. SH.M.Mirziyoyev "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz." /. Toshkent : O'zbekiston, 2017
4. SH.M.Mirziyoev. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr.
5. SH.M.Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar.
6. SHavkat Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir.T., "O'zbekiston", 2018.
7. SH.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T., "O'zbekiston", 2018
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq / Toshkent: «O'zbekiston», 2016.
9. SH.M.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. - Toshkent: «O'zbekiston», 2017.


### ASOSIY ADABIYOTLAR:


1. Toshmurodov. M.E. "Rangtasvir amaliyoti" (dastgohli rangtasvir), O'quv-uslubiy qo'llanma. Elektron resurs. T., "Chashma print", 2010 yil
2. https://kpfu.ru/pdf/portal/oop/95198.pdf
3. Xudayberganov R.A. "Rangshunoslik asoslari", O'quv qollanma. T., Nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2006 yil
4. D.Mamurova, N.Avliyakulova "Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari"-Durdona-B: 2021 yil
5. B.B. Azimov, M.B. Azimova "Rangtasvir"-Durdona-B:2019 yil Internet saytlari:
1. www.tdpu.uz 2. www.pedagog.uz 3. www.Ziyonet.uz 4. www.edu.


## 60210500-Rangtasvir: (dastgohli), 60210800-Amaliy san'at (Badiiy kulolchilik ta'lim yo'nalishishlari yo'nalishi bitiruvchilari uchun ixtisoslik fanlaridan Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi, BMI mavzulari

| |
|---|
| "Ark" tarixiy obidasini tasvirlash metodikasi va texnologiyasi (moybo'yoqda) |
| "Chor Minor" tarixiy obidasini kompozitsion tasvirlash (moybo'yoqda) |
| "Bolo hovuz" tarixiy yo'dgorligini tasvirlash metodologiyasi (moybo'yoqda) |
| Buxoroning "Eski shahar" ko'chalarini kompozitsion tasvirlash (moybo'yoqda) |
| Modarixon madrassasini kompozitsion tasvirlash (moybo'yoqda) |
| "Lyabi xovuz" ansamblini tarixiy voqeylikda aks ettirish (moybo'yoqda) |
| "Nodir Devonbegi madrassasi" tasvirlash kompozitsiyasi. (moybo'yoqda) |
| "Toki Zargaron" tarixiy obidasini tasvirlash texnika va texnologiyasi. (moybo'yoqda) |
| "Buyuk ipak yo'li" kompozitsiyasini tasvirlash metodikasi va texnologiyasi (moybo'yoqda) |
| "Abdulazizxon madrassasi" tarixiy obidasini tasvirlash texnologiyasi. (moybo'yoqda) |
| "Ulugbek madrassasi" tarixiy obidasini tasvirlash kompozitsiyasi. (moybo'yoqda) |
| "Samoniylar maqbarasi" tarixiy obidasini tasvirlash texnika va texnologiyasi. (moybo'yoqda) |
| "Magoki attori" tarixiy obidani tasvirlash texnika va texnologiyasi. (moybo'yoqda) |
| "Amir Temur" portretini moybuyokqa bajarish texnologiyasi |
| Manzara kompozitsiyasini tasvirlash texnologiyasi (moybo'yoqda) |
| Qishloq manzarasi mavzusida manzara yaratish texnologiyasi (moy bo'yoqda) |
| "Poyi kalon" ansamblini tarixiy voqeylikda aks ettirish (moybo'yoqda) |
| Milliy sopol va uy-ro'zgor buyumlaridan tashkil topgan natyurmort bajarish (moybo'yoqda) |
| Tog manzarasi mavzusida manzara yaratish texnologiyasi (moybo'yoqda) |
| Qishloq manzarasi mavzusida manzara yaratish texnologiyasi (moy bo'yoqda) |
| Moxi xosa ansamblini tarixiy voqeylikda aks ettirish (moybo'yoqda) |
| Dekorativ shaxmat figuralari va taxtasini tayyorlash texnologiyasi |
| Yogochdan dekorativ shkatulkalarini tayyorlash texnologiyasi |
| Dekorativ sakkiz kirrali "Kursi" tayyorlash texnika va texnologiyasi |
| Yogochdan dekorativ "Lavx" tayyorlash texnologiyasi |

| |
|---|
| Zardo`zlikda panno tayyorlash texnika va texnologiyasi |
| Sopolda ijodiy kompozitsiya yaratish texnologiyasi |
| Dekorativ o`n ikki kirrali "Kursi" tayyorlash texnika va texnologiyasi |
| Qogozda miniatyura tayyorlash texnika va texnologiyasi |
| Buxoro miniatyura maktabi usulida ijodiy kompozitsiyalar bajarish texnologiyasi |
| Dekorativ olti kirrali "Kursi" tayyorlash texnika va texnologiyasi |
| Milliy naqqoshlik usulida ro`zgor va sovgabop buyumlarni tayyorlash texnologiyasi |
| Interyer bezagi uchun mis kandakorligi va naqqoshlik uyg`unlugida lali tayyorlash texnologiyasi. |
| Buxoro naqqoshlik maktabiga hos bo'lgan sakkiz kirrali "Kursi" bajarish texnologiyasi |
| Yogochdan ikrustatsiyaga ega shaxmat taxtasi va figuralarni tayyorlash texnologiyasi |
| Mis kandakorligida inkrustatsiya usulidan foydalanib buyumni badiiy bezash usuli |
| Kashtachilik usulida pano tayyorlash texnologiyasi. |
| Kandakorlikda Buxoro tarixiy yodgorliklarini o'yich. (mis la'li misolida) |
| Kulolchilikda sovgabop yinchoqlarni tayyorlash texnika va texnologiyasi |
| Yog'ch o'ymakorligida qalamdon va qutichalarni yasash texnologiyasi. |
| Sharq miniatyura maktabi usulida ov manzarasini tasvirlash texnologiyasi (terida) |

**Tasviriy va amaliy san'at kafedrasi mudiri:** **S.S. Abdullayev**